

Sirli “guvoh” (hikoya)

Margaret Shteenfatt.

Uve zargarlik do‘koni eshigini astagina yopib ichkariga kirdi. Birinchi qavatning chirog‘i va signal uskunasi o‘chirilganidan so‘ng u “xarid”ni bemalol boshlayverishi mumkin bo‘ldi. Xarid oxiriga yetguniga qadar esa u hamma narsani rejalashtirib, tayyorlab, ko‘z ostiga olib qo‘ydi va endi hech kim va hech nima unga to‘sqinlik qila olmas edi. U buni anchadan beri rejalashtirib kelayotgan edi. Binoning yuqori qavatlarida idoralar, ikkinchi qavatida, shundoqqina do‘konning tepasida ayollar va erkaklar tikuvchilik xonalari bo‘lib, ayni shu paytda u yerda hech kim yo‘q edi.

Uve bu safar yolg‘iz o‘zi edi. Chunki guvohlar bilan ishlash oqibati o‘n yillik qamoq jazosi bilan tugagan edi. U yakshanba kunlarining birida qamoqdan chiqayotganida bir joyda yozilgan quyidagi so‘zlarga to‘satdan ko‘zi tushgandi: “Agar sen nohaqlik va jinoyatga qo‘l ursang, uni kimdir har doim ko‘rib turadi va seni ta’qib qiladi”.

Bu so‘zlarni Uve sira unuta olmadi. Zargarlik do‘konining orqa xonasidagi eski seyfning osongina ochilishi unga qo‘l keldi. U seyfdan faqatgina yoqut va boshqa qimmatbaho toshlarni oldi. Bilaguzuk, uzuk va shunga o‘xshagan taqinchoqlarni esa joyida qoldirdi. Bu gal u nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutardi.

Shu tobda do‘konga yaqin joydagi cherkovda uch marta bong urilgani eshitildi. Soat ertalabki uch edi. Bir soatdan so‘ng keyingi nazoratchi xodim o‘tib ketdi. Uve bu gal yolg‘iz ekanligidan o‘zi uchun hech qanday xavf-xatarni

his qilmas, do‘konni oxirigacha o‘marib ketishga qat’iy kirishgan edi.

Qamoqdagi vrach tibbiy tekshiruv paytida Uvega “kasb”ingizni o‘zgartiring”, deb aytgan, bundan tashqari “o‘zingizga yaxshi bir tinch-roq ish toping, elektr ustasi bo‘lib ishlasangiz ham bo‘ladi. Chunki bu ish ancha-muncha qo‘lingizdan kelar ekan, sog‘-ligingizni asrang”, deb maslahat bergan edi. Uve shularni o‘ylab turgan paytda zargarlik do‘koni oldida bir odam to‘xtab turar, aslida esa u sigaretini shamoldan to‘sgan holda tutatmoqchi edi. Uve cho‘ntagidan to‘pponchasini chiqarib, uni kuzata boshladi. Notanish kishi yo‘lida davom etganidan keyin Uve xotirjam tortdi. U zo‘r va tez ishladi, balki shundan bo‘lsa kerak, ishni rejalashtirib qo‘ygan vaqtdan oldinroq tamomlab, juda ehtiyotkorlik bilan chiqib ketmoqchi bo‘ldi. Shahar esa sokin uyquda edi. Sovuq tun havosidan asta nafas olar, mashinasiga o‘tirib ketishdan oldin o‘zini dadil va ehtiyotkor sezar edi. Nihoyat Uve hammasini uddalab, ketishga endi chog‘langanida nogoh binoning ikkinchi qavati derazasiga qaradi. Bu joyda uni ta’qib qilib turgan bir kishini yuz qiyofasini ko‘rib qoldi. Uve ushbu kimsaning aniq o‘ziga qarayotganini fahm-ladi. Birdan qamoqdan chiqayotgan paytda o‘qigan so‘zlari yodiga tushib ketdi va “kimdir qarayapti”, dedi o‘ziga o‘zi. Uve chap qo‘li bilan mashinaning kichik oynasini to‘g‘irlab, o‘ng qo‘li bilan derazadan qarab turgan odamga qarata o‘q uzdi. Shu payt ikkinchi qavat oynasi chil-chil bo‘lganini eshitdi. Endi esa u tez bu yerdan jo‘nab qolishi kerak edi, ammo... hozirgina chilparchin bo‘lgan derazaga yana qo‘rqibgina

qaradi va haligi kishi Uvega avvalgiday qarab turganini ko‘rib hayron qoldi...

Politsiyachilar yetib kelganida esa mashina motori hali ham guvillab turar, Uve esa mashina rulida yotar edi. Chaqirilgan “Tez yordam” shifokorlari Uvening yurak xuruji tutib qolganini aytishdi. Politsiyaga qo‘ng‘iroq qilgan kishi esa “Ammo o‘q uzildi, men buni eshitdim, uni otib ketishdi”, dedi. Sal turib ikkinchi qavatda chilparchin bo‘lgan oynaga politsiyachilarning ko‘zlari tushib qoldi. Ular binoga kirganlarida ust-ki qavatdagi tikuvchilik xonalariga ham kirishdi va derazadagi Uveni ta’qib qilib turgan odam ko‘rgazma qo‘g‘irchoq‘i ekanligini ko‘rishdi. Qo‘g‘irchoq hali ham u yerda pastga qarab turar edi. Faqatgina uning peshonasida Uve otgan o‘qdan paydo bo‘lgan teshikcha bor edi...

Avl Krik ko‘prigidagi voqea.

Ambroz Birs.

Shimoliy Alabamadagi temiryo‘l ko‘prigida bir erkak turardi. Yigirma chaqirim pastlikda esa suv shiddat bilan oqardi. Erkakning qo‘llari orqasiga qayrilgan, bilaklari arqon bilan maxkam bog‘langandi. Erkakning yonida uning jazo ijrochilari – Federal Armiyaning ikki nafar askari va fuqarolik paytida sherif bo‘lib ishlagan serjant turardi. Ulardan teparoqda esa qurollangan bir zobit turardi. U kapitan edi. Ko‘prikning boshida va oxirida ikki qurollangan qo‘riqchi ham yordamga shay turardi. Qo‘riqchilar yonida hech kim ko‘rinmasdi. To‘g‘rida yuz chaqirimlik o‘rmon, undan keyin esa burilish bor edi va u yerlarda ham hech zog‘ ko‘rinmasdi. Ko‘prik va qiyalik o‘rtasida tomoshabinlar – ulkan olomon yig‘ilgandi. O‘ng tomonda esa qilichini yerga qadab bir leytenant turardi. Olomon ko‘prik tomonga tosh qotganicha xayrat bilan qarab turardi. Kapitan askarlarining ishini indamasdan kuzatib turardi. Xukum ijrosi yuqori martabali amaldor rasmiy buyruqni keltirgach amalga oshirilishi kerak yedi. Bog‘langan odam taxminan o‘ttiz besh yoshlar atrofida edi. U o‘z yerida kuch-qudratga ega bo‘lgan fuqaro – plantator (yirik yer egasi) edi. U tekis burun, keng peshonali, uzun sochlari orqaga taralgan, qimmatbaho plash kiygan, kelishgan erkak edi. Uning soqol-mo‘ylovi bor edi, lekin bakenbardasi (chekka soqoli) yo‘q edi. Ko‘zlari esa katta-katta va qop-qora edi. Uning bu ko‘rinishi shubxasiz qo‘pol qotilnikiga umuman o‘xshamasdi. Biroq Harbiy Kodeksga ko‘ra ko‘pgina odamlar jazoga tortilgan va unga o‘xshagan jentelmenlar ham bundan mustasno emas albatta.

Barcha tayyorgarliklar yakunlandi, ikki askar chetga o'tdi, serjant esa kapitanga o'girilib chest berdi va tezlik bilan uning orqasiga o'tdi. Hukumga ishora berilgach, aybdorni suvga tushira boshlashdi. Uning ko'zlari bog'lanmagandi. U tipirchilab turgan oyoqlari ostidagi suv oqimiga qaradi. Harakatlanish uchun juda sekin oqim. Keyin ko'zlarini yumib oldi. Uning so'nngi xayollari rafiqasi va farzandlarida edi. U ko'zlarini ochdi va yana pastdagi suvga qaradi.

- Agar qo'llarimni bo'shata olsam deb o'yladi u. – Burnimni yopib oqim bilan suzib ketaman. Suvga sho'ng'ib o'qlardan qochib qutilaman. Bor kuchim bilan o'rmongacha suzib borsam bo'ldi, keyin u yerdan uyga qochaman. Yaratgan Egamga shukurki uyim behavotir joyda, xotinim va kichkintoylarim esa dushmanlardan uzoqda.

Bechoraning miyasidan shunday xayollar o'tayotgan bir paytda kapitan serjantga ishora berdi...

Peyton Farkva Alabamaning xurmatga sazovor, obro'li oilasidan chiqqan badavlat plantator edi. U quldor edi va boshqa quldorlar kabi u ham ashaddiy irqchi siyosatchi bo'lib, Janubiy Shtatlar Konfederatsiyasiga (AQShda fuqarolar urushi davrida janublik quldorlar tuzgan davlat) jon-jahdi bilan xayrxohlik qilgan. Aynan shuning uchun xam jazoga tortilgan.

Peyton Farkva to'g'ri pastga – suvga qarab tushirilayotganida hushini yo'qotdi. Tomog'ini qattiq og'riq bo'g'a boshladi. Tanasi va qo'l-oyoqlari titrab tomog'idan kuchli og'riq otilib chiqdi. U ko'zlarini ochganida hali ham suvga cho'kayotgandi. U suv yuzasiga qanday qilib bo'lmasin chiqib olishi kerak yedi.

- Bog‘liq holda cho‘kib o‘lish? deb o‘yladi u. - Ha, bu narsa unchalik ham yomon emas. Ammo men otib o‘ldirilishni istamasdim. Yo‘q men o‘lmayman aslo! Axir bu adolatdan emas!

Farkva bilaklarida kuchli og‘riq bo‘lishiga qaramasdan zo‘r berib qo‘llarini yechishga urinardi. – Qani chiq! Chiqsangchi! deb qo‘llariga baqirardi sho‘rlik.

Bo‘ynida esa kuchli og‘riq turib, miyasi o‘t bo‘lib yonar, yuragi esa kuchsiz urardi. Og‘zini ochib, chuqur nafas olib kuch yig‘ishga urinardi.

Nihoyat Peyton bir amallab suv yuzasiga chiqishga muvaffaq bo‘ldi. U ko‘priknı, uning ustidagi askarlar, serjant va kapitanni ko‘rdi. Ular Farvani ko‘rib baqirishdi. Kapitan pistoletini chiqardi lekin otmadi. Boshqalar esa hali qurolini olishga ulgirmagandi. Ularning barchasi qo‘rqinchli va g‘alati edi.

Farkvaning yonidan birdaniga bir narsa o‘tib ketdi va «shalop» etib suvga urildi. Bu narsa o‘q edi. Merganlar unga qarab o‘q uza boshlashdi. Farkva qirg‘oqdagi o‘rmonga qaradi. O‘ng tomondagi leytenant tartib bilan quyidagi so‘zlarni aytdi:

- Tayyorlan! – Nishonga ol! – O‘t och!

Peyton suvga sho‘ng‘idi. Suv uning quloqlariga Niagara sharsharasining tovushlari kabi urildi. Keyin esa u yog‘dirilgan o‘qlarning momoqaldiroqqa o‘xshash tovushini eshitdi. U suv yuzasiga ko‘tarildi va birin-ketin kelayotgan metall parchalarini ko‘rdi. Ularning bazilari uning yuzi va qo‘llarini yalab o‘tdi. Bittasi uning bo‘yni va yoqasining o‘rtasiga tegdi. Daxtli achishish boshlanib, Farkva bo‘ynini changalladi...

Suv yuzasiga chiqqanida Peyton Farkva xansirab nafas

olardi. U uzoq vaqt suv tagida bo'lganini his qildi. Farkva askarlardan ancha uzoqda edi va xavfsiz joyga yaqin kelib qolgandi. Askarlar o't ochishni deyarli to'xtatishgan faqat ikki qo'riqchi xamon o'zboshimchalik bilan o'q uzardi. Farkva esa jon-jahdi bilan suzib borardi. Uning miyasi ham qo'l-oyoqlari kabi xarakatchan edi. U yashin tezligida fikrlay boshladi.

- Ahmoqlar, endi boshqa bunday xatoga yo'l qo'ymanglar! dedi Farkva ularga bepisandlik bilan qararkan. – Shuncha o'qlar yomg'iridan xuddi bitta o'qdan qochgandek oson qutildim-a! Parvardigorning o'zi menga madad berdi. Aks holda bu yaramaslardan qutila olarmidim!

Kutilmaganda u o'zining aylanayotganini xis qildi. Suv, qirg'oq, o'rmon, ko'priklar, odamlar – barchasi aralashib ketdi. Borliqdagi narsalar uning ko'ziga o'zining rangida aylanib-aylanib yo'l-yo'l chiziqli bo'lib ko'rinardi. Peyton Farkva qandaydir girdobga tushib qolib, shiddat bilan aylanardi. U bir necha daqiqa ichida dushmanlaridan yashirinsa bo'ladigan daryoning janubiy qirg'og'iga borib tushdi. Farkva quvonchdan yig'lab yubordi. Zambarak o'qining kuchli ovozi uni xushyor qildi. U o'rmon ichiga yugirib kirib ketdi.

Farkva kuni bilan yo'l yurdi. O'rmonning oxiri ko'rinmasdi. Hech qaerda chiqish yo'li ko'rinmasdi. Xattoki o'rmonchilar yo'lagi ham yo'q edi. Shunday yovvoyi hududda yashaganini o'zi ham bilmas ekan. Kech tushishi bilan u oyoqlari toliqib, charchagani va ochiqqanini his qildi. Rafiqasi va farzandlarini tezroq ko'rish istagi unga kuch bag'ishladi. Nixoyat u uyiga boradigan yo'lni topdi. Yo'l uzun va keng shaxar

ko'chasiga o'xshardi. Go'yoki undan xali hech kim yurmagandek edi. Hech qanday dala va turar-joy ko'rinmas edi. Yo'lning ikki tomonidan daraxtlar devordek tizilgandi. Ularning orasidan esa g'alati tovushlar eshitilardi.

Farkvaning bo'yni qattiq og'ridi va uni ushlab ko'rib bo'yni shishib ketganini bildi. U arqon bo'ynini bo'g'gani uchun shunday bo'lganini taxmin qildi. Uning ko'zlari ochiq turardi. U ko'zlarini uzoq vaqt yuma olmadi. Uning tili esa tashnalikdan shishib ketgandi.

Nixoyat Peyton Farkva uyining darvozasi oldida turardi. U tun bo'yi yo'l bosgandi. Darvozani ochishi bilan xotiniga ko'zi tushdi. U xotini tomonga qarab yura boshladi. Lekin unga yaqinlashishi bilan birdan xushini yo'qotdi. Ko'zlarini ochganida esa hammayoq qorong'u va jimlik xukum surardi.

Peyton Farkva o'sha ko'prikdagi otishmada allaqachon xalok bo'lgan edi. Uning bo'ynidan o'q tekkan jasadi Avl Krik ko'prigi ostida u yoqdan bu yoqqa chayqalib yotardi.

Feruz Ziyodulloyev tarjimasi

Tungi poyezd (hikoya)

Jennifer Bassett.

Janob Xarris samolyotlardan juda qo‘rqardi. Avtobuslarni xam unchalik xushlamasdi. U o‘n yoshligida poyezdga mexr qo‘ygan. Hozir u ellik yoshda va hali xam poyezdlarni yaxshi ko‘radi. Janob Xarris o‘n to‘rtinchi sentyabrda Xelsinki (Finlandiya) dan Ouluga ketadigan tungi poyezdga chiqdi. Oldinda o‘n soatlik yo‘l bor edi. Poyezdda odam ko‘p emasdi va janob Xarrisning kupesiga xech kim kirmadi. U bundan juda xursand bo‘ldi. Ko‘pgina odamlar poyezdda tunda uxlab ketsa, janob Xarris derazadan tashqarini tomosha qilib ketish yoki kitob o‘qishni maqul ko‘rardi. Poyezd restoranidagi tushlikdan so‘ng janob Xarris vagoniga qaytib keldi va derazaning oldiga borib o‘tirdi. Derazadan bir- ikki soat Finlandiya o‘rmon va ko‘llarini tomosha qildi. Qorong‘u tusha boshlagach, janob Xarris kitobini ochib, uni o‘qishga tushdi. Yarim tunda poyezd Otavadagi kichkina bekatda to‘xtadi. Janob Xarris derazadan tashqariga qaradi, biroq xech kimni ko‘rmadi. Poyezd joyidan qo‘zg‘aldi. Bir oz o‘tib, janob Xarrisning kupesi eshigi ochilib, bir yosh erkak va bir yosh ayol kirib keldi. Ayolning jahldan ko‘zlari yonardi.

– Karl! Bunday qilolmaysan! deb baqirdi u erkakka.

Yosh erkak esa xoxolab kulganicha o‘rindiqlarga o‘tirdi. Janob Xarris muloyim inson edi. U baland ovozda gapiradigan odamlarni yoqtirmasdi. Shu sababli ularning kelishi janob Xarrisga umuman yoqmadi “Ex yoshlar! Nega ular sekin gapira olmaydi-ya?”

U kitobini yerga qo‘ydi va ko‘zlarini yumdi. Lekin uxlay

olmadi chunki bu ikki yosh gapirishdan to‘xtamasdi. Ayol o‘tirib, pastroq ovozda dedi:

- Karl! Axir akamsan-ku, seni yaxshi ko‘raman. Ammo, iltimos meni tushun, senga olmos marjonimni bera olmayman! Iltimos, uni menga qaytarib ber!

Karl tirjaydi.

– Yo‘q, Yelena, tez orada Rossiyaga qaytaman! Shuning uchun olmoslaringni olishga majburman, - deb shlyapasini yechib yerga qo‘ydi. – Yelena quloq sol, ering juda boy, men esa kambag‘alman. Mening xech narsam yo‘q. Pulsiz qanday yashashim mumkin? Pul bera olmas ekansan, olmoslaring menga kerak bo‘ladi, singiljon.

Janob Xarris ayolga yaxshilab razm soldi. U qosh-ko‘zi va sochlari qop-qora, go‘zal ayol edi. Uning yuzlari oqarib ketgan, ko‘zlarida esa qo‘rquv bor edi. Janob Xarris Yelenaga achinib ketdi. U va akasi biron marta xam janob Xarrisga qarashmadi.

“Ular meni ko‘rishmayapti-mi?” deb o‘yladi janob Xarris.

– Karl dedi Yelena yana, uning ovozi juda sekin chiqdi va janob Xarris asta quloq soldi – bugun uyimizga tushlikka kelganingda xonamga kirib, olmos marjonimni o‘g‘irlagansan. Nega bunday qilding? Bu marjonni menga erim bergan. Bu - unga onasidan yodgorlik. Uning jaxli chiqishi aniq. Men undan qo‘rqaman!

Karl esa tirjayganicha qo‘lini cho‘ntagiga solib, undan marjonni chiqardi. Uning qo‘lidagi olmos marjon juda chiroyli edi. Janob Xarris marjonga termildi. Kupeda bir daqiqa jimlik xukm surdi. Janob Xarris kitobini ochdi-yu, uni o‘qimadi. U Karlning chaqchaygan ko‘zlari va sovuq yuziga qaradi.

– Qanday chiroyli olmoslar! Ular menga yaxshigina pul

keltiradi dedi Karl.

– Ularni menga qaytarib ber, Karl deb shivirladi Yelena. Erim meni o‘ldiradi. Axir akamsan-ku, iltimos!

Karl yana tirjaydi. Janob Xarrisning unga musht tushirgisi kelib ketdi.

– Uyinga bor, singiljon. Men, bari bir olmoslarni senga qaytarib bermayman. Qani, jo‘na o‘sha joxil eringni oldiga!

Ayolning qo‘lida birdaniga o‘tkir, uzun pichoq paydo bo‘ldi. Janob Xarrisning og‘zi ochilib, biror narsa deya olmasdi.

– Olmoslarimni qaytar, bo‘lmasa, seni o‘ldiraman! deb qichqirdi Yelena.

- Qanday mexribon va shirinso‘z singlim bor-a! Yo‘q, singiljon, ular - endi mening olmoslarim pichog‘ingni olib qo‘y deb kuldi Karl.

Ammo kutilmaganda pichoqning uchi unga sanchildi va daxshatli chinqiriq bilan Karl yerga quladi. Xamma yoq qip-qizil qonga bo‘yaladi. Olmos marjon Karlning qo‘lidan polga tushdi. Yelenaning rangi oqarib ketdi.

– O, yo‘q! Karl! Qayt... qayt!... Seni o‘ldirmoqchi emasdim!...

Ammo Karl javob bermadi. Yelena uning boshiga qo‘llarini qo‘yib baqirib yig‘lab yubordi. Janob Xarrisning esa rangi oqarib, og‘zi ochilib qolgandi. Tezlik bilan o‘rnidan turib, eshik tomonga bordi. Yelena unga etibor xam qilmasdi. Janob Xarris yo‘lakka chiqib, to‘g‘ri poyezd nazoratchisining oldiga yugirdi.

– Tezroq! dedi u xansirab. - Tezroq men bilan yuring! Falokat!... u yerda bir ayol!... Ey Xudoyim! U o‘z akasini o‘ldirib qo‘ydi! Poyezd nazoratchisi janob Xarris bilan

kupega bordi. Janob Xarris eshikni ochdi va ular ichkariga kirishdi. Ammo kupeda na ayol, na jasad bor edi. Xech qanaqangi pichoq xam, olmos marjon xam yo‘q edi. U yerda faqat janob Xarrisning sumka, shlyapa va paltosi turardi. Poyezd nazoratchisi va janob Xarris birlariga qaradi.

– Lekin... lekin ular shu yerda edi! Men ularni aniq ko‘rdim! U ... yoshgina ayol ... qo‘lida pichog‘i bor edi va shu pichoq bilan akasini o‘ldirib qo‘ydi!

– Pichog‘i bor edi deysizmi? deb so‘radi poyezd nazoratchisi.

– Xa, uzun pichoq. Akasi uning olmoslarini olib qo‘ygan ekan shunga...

– Exa, Olmoslar! deb janob Xarrisning gapini bo‘ldi nazoratchi. - O‘sha ayolning ismi Yelenamidi?

- Xa, shunday! Buni qaerdan bilasiz? Uni taniysizmi? dedi xayratlanib janob Xarris.

– Shunday desa xam bo‘ladi deb nazoratchi biroz o‘ylanib qoldi. Keyin janob Xarrisga qaradi: – Yelena di Saronelli juda go‘zal ayol bo‘lgan. Yarim italyan, yarim finn. Akasi uning o‘gay akasi. Ularning onalari boshqa bo‘lgan. Menimcha akasining onasi rus bo‘lgan.

– Bo‘lgan? Nega o‘tgan zamonda gapiryapsiz? Axir u ayol tirik-ku!

– E, yo‘q. Yelena di Saronelli bundan taxminan sakson yillar avval olamdan o‘tgan. Akasini o‘ldirib qo‘ygach, qo‘rqqanidan poyezddan sakragan va o‘sha zaxoti xalok bo‘lgan. Bu voqea taxminimcha ana shu kupeda sodir bo‘lgan.

Janob Xarrisning yuzi battar oqarib ketdi.

– Sakson yil avval? Nimalar deyapsiz? Demak u va akasi

... biroq men ularni ko‘rdim!

- Xa, to‘g‘ri ularni ko‘rgansiz ammo ular xozir xayot emas. Ular sharpalar bo‘lsa kerak. Odatda aynan sentyabr oyida ular tez tez ko‘rinish berishadi. Men bu sharpalarni xech qachon ko‘rmaganman. Ularni sizdan boshqa insonlar xam ko‘rishgan. O‘tgan yili bir er-xotin ana shu sharpalarni ko‘rishganini aytishgandi.

Shunday deb poyezd nazoratchisi janob Xarrisning qo‘rquvdan oqarib ketgan yuziga qaradi.

– Suv ichib olishingiz kerak, men bilan yuring sizga suv beraman deb u janob Xarrisning qo‘lidan tutdi.

Janob Xarris finn suvini xushlamasdi. Ammo u qo‘rquvga tushib qolgandi. Ko‘zlarini yumishi bilan qo‘lida uzun, o‘tkir pichoqni ushlab turgan Yelenani ko‘rardi va uning daxshatli qichqirig‘ini eshitardi. Shu sababli u nazoratchiga ergashdi. Suv ichib bo‘lgach janob Xarris o‘zini biroz yaxshi xis qildi. Biroq yuragidagi qo‘rquv xanuz uni tark etmagandi. Shuning uchun u poyezd nazoratchisi bilan birga qoldi va kupesiga qaytmadi.

– Xa, bu mashxur xikoya dedi poyezd nazoratchisi. – Xammasi aniq esimda yo‘q. Bu voqea ancha yil oldin sodir bo‘lgan. Yelenaning otasi Finlandiyaning juda boy kishilaridan biri bo‘lgan. Shunga yarasha uch-to‘rtta xotini va sakkiztacha bolasi bo‘lgan. Bor boyligini ko‘ngilxushlikka sarflagani tufayli farzandlariga deyarli xech narsa qoldirmagan. Karl uning to‘ng‘ich o‘g‘li bo‘lgan. Odamlarning aytishicha u yengil xayotni tanlagan, juda yomon odam bo‘lgan ekan. Yelena esa... U bechoraga bu uchta erkak – otasi, akasi va eri bilan yashash oson bo‘lmagan. Bir yili u onasinikiga, Italiyaga

borgan va o'sha yerda turmush o'rtog'i di Saronellini uchratgan. U juda boy ammo qaxri qattiq, qattiqqo'l erkak bo'lgan. Ular Finlandiyaga qaytishgach Karl tez tez ularnikiga borib turgan. U singlisining badavlat eridan pul so'rardi. Yelena akasini juda yaxshi ko'rargani uchun unga pul berardi. Ammo janob di Saronelli Karlni yoqtirmas va bu ishi uchun Yelenadan jaxli chiqardi. U Yelenaga g'azab qilib Karlga pul berishni to'xtatdi. O'shandan keyin esa... Qolgani sizga malum.

– Xa bechora, baxtsiz Yelena deb xo'rsinib qo'ydi janob Xarris.

Janob Xarris Ouluda ikki xafta do'stlari bilan dam oldi. Biroq Xelsinkiga qaytishda bu safar janob Xarris avtobusga mindi. Avtobus sekin yurardi va bu yerda odamlar xam ko'p edi. Ammo janob Xarris juda baxtiyor edi. O'sha voqeadan so'ng janob Xarris qaytib tungi poyezdlarga chiqmaydigan bo'ldi.